

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILMINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Jurayeva Muxlisa Muzaffar qizi

Termiz Davlat Pedagogika Instituti Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20741676>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslari orqali og'zaki nutqni rivojlantirishning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek o'quvchilarning adolatli va to'g'ri baholash yordamida ularning shaxsiy fikr, dunyoqarashi, tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Baholash metodlari, metod, usul, texnologiya, ta'lim, baholash usullari.

KIRISH

Baholash deganda o'zi nimani tushunamiz? Baholash o'zi nima uchun kerak? Savodxonlik nima? Baholashdan maqsad nima? Nimani baholashimiz kerak? Dastlab ushbu savollarning javoblarini ko'rib chiqamiz. Baholash bu-ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir. O'quvchilar o'qigan matnni anglash, matndagi asosiy fikrni ajratish, fikrni izohlash qobiliyatini rivojlantiradi. O'qish savodxonligi boshlang'ich ta'limning muhim qismi bo'lib, o'quvchilarning keyingi ta'lim yutuqlari uchun mustahkam poydevor yaratadi

Baholashdan maqsad: Kasbiy ko'nikma va malakalarni baholash qator masalalarni xal etishni o'z oldiga maqsad qiladi. Ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: **Birinchi:** O'zlashtirilganlikning qay darajada amalga oshirilganligini aniqlash; davlat ta'lim standartlari talablarining qay darajada bajarilganligini aniqlash. **Ikkinchi:** O'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayonidagi xato va kamchiliklarini aniqlash; ta'lim mazmuni va metodikasini rejalashtirish. **Uchinchi:** Ta'lim berish: So'rash va bajartirib ko'rish jarayonida o'quvchining xato hamda kamchiliklarini tuzatish; So'rash va bajartirib ko'rish jarayonida boshqalarga takrorlanish va saboq bo'lishini ko'zda tutish. **Baholashning ahamiyati:** O'zlashtirilganlik to'g'risida ma'lumot olinadi; Savol-javob jarayonida boshqa o'quvchilarga takrorlanish bo'ladi; Bilim, ko'nikma va malakalar egallanadi hamda mustahkamlanadi; Mashg'ulotning qaysi bo'lagiga yaxshiroq e'tibor berish kerakligi ma'lum bo'ladi; O'qituvchi o'z kamchiliklarini anglaydi; O'quvchi o'zining nimalarga qodir ekanligini biladi; Davlat ta'lim standartlarining bajarilish darajasi aniqlanadi; Ta'lim oluvchining o'rtoqlari, ota-onasi uning faoliyati xaqida ma'lumotga ega bo'ladi. Savodxonlik hamma uchun tanish bo'lgan tushuncha.

Savodxonlik bu- asosiy kognitiv ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi bo'lib, ona tilida o'qish, yozish va matematik bilimlarning majmui. Ammo texnologiya va axboortlar murakkabligining rivojlanishi bilan biz uchun aniq bo'lgan savodxonlik tushunchasi kengaymoqda. Zamonaviy inson uchun zarur bo'lgan kompetentsiyalarni tasniflashga urinayotgan xalqaro tashkilotlar raqamli, axborot va ilmiy savodxonlikning ahamiyati haqida gapirishadi. Ko'pincha bu turdagi savodxonlik bir -birini to'ldiradi.

O'qish savodxonligi - shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati ham hisoblanadi.

O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar bilimni baholash samarali ta'limning asosiy jihati hisoblanadi. O'quvchilarning o'qishni tushunish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va umumiy savodxonlik darajasini baholash orqali o'qituvchilar kuch va takomillashtirish sohalarini aniqlashlari mumkin, bu esa ko'proq maqsadli va ta'sirli ko'rsatmalarga olib keladi. Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini, oldingi yutuqlari bilan taqqoslash jarayonini va o'quv natijalarini amaldagi o'quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o'zaro bog'liqligini tushunamiz. Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi va biz buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilamiz. O'qitish jarayonida o'qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to'plami "Formativ baholash" (shakllantiruvchi) deb nomlanadi. Bu o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan o'quv jarayonining bir qismi bo'lib, o'quv va o'qitish usullarini o'zgartirish orqali o'quvchining tushunchasi va malakasini oshirishga qaratilgan.

Og'zaki baholash: Og'zaki baholash o'tkazish o'quvchilarning o'qigan materialini tushunishi, ravonligi va o'z fikrlarini bayon eta olishini baholashning samarali usuli bo'lishi mumkin. Og'zaki baholashda o'qituvchining adolatlilikiga asoslangan holda ko'proq o'quvchilarni baholay olishi mumkin.

"Test" metodi: "Test" metodi o'quvchilarning bilim darajasi, bu ko'rinishini va kompetensiyalarini aniqlash uchun yordam berish va yordamdir. Testlar yordamida o'quvchilarning o'zlashtirishi, o'rgangan bilimlari va ma'lumotlarini yuklab olish yaxshi anglanganini aniqlash mumkin.

Yozuv topshiriqlari: O'quvchilardan o'qish materiallari bo'yicha xulosalar, javoblar yoki mulohaza yozishni so'rash ularning tushunish va fikrlarni izchil ifodalash qobiliyatini baholashga yordam beradi. Ushbu topshiriqlar yordamida o'quvchilarning yoshini inobatga olgan holda topshiriq beriladi. Masalan: 1-2-sinflar bo'lsa bir yoki ikkita gap yordamida, 3-4-sinflar bo'lsa qisqacha shaxsiy fikr yoki bir nechta gaplardan iborat matn ko'rinishida ifodalash mumkin.

Matn ustida ishlash: O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash jarayonida asosiy e'tibor uning mazmuniga qaratilsa-da, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqea kechayotgan sharoit, peyzaj, asar qahramonlarining kechmishlari, ruhiyati tasvirida o'tgan, hozirgi yoki kelasi zamon shakllaridan foydalanilishini anglagan o'quvchi matn mazmunini og'zaki hikoyalashda adashmaydi. O'quvchilar diqqatini matndagi bir mazmundagi hodisalar tasvirida (peyzaj, adabiy qahramonning ruhiy holati, portreti) fe'l-kesimlar, odatda, bitta zamon shaklida bo'lishiga qaratish ularning nafaqat o'qish va yozuv, balki matn mazmunini idrok etish va fikrlash bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Matnlarda jumllalararo aloqa alohida e'tiborga molik. Odatda, matnning aynan bir shaxs yoki bitta voqeahodisa haqida gap boradigan qismi o'zaro aloqada bo'lib, xatboshidan boshlanadi. Darslarda o'quvchilarga matn qismlarini o'qish yoki ko'chirib yozishni topshirish ularning diqqatini ma'lum bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Ko'rsatilgan belgilar asosida matnni mazmunan tugal va o'quvchida xabar qilinayotgan axborotga ma'lum munosabat uyg'otish bilan xarakterlanadigan yozma shakldagi axborot sifatida ta'riflash

mumkin. Bundan tashqari o'quvchilarga, "hikoya mazmunini umumlashtirish", "hikoyani qayta nomlang" topshiriqlari yordamida o'qish savodxonligi darslarda o'quvchilarni baholash, mumkin

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, foydalanish lozim. O'qish savodxonligi darslarda bolalarning badiiy qiziqishi, ijodiy izlanishi, ijodkorligi aniqlagan holda adolatli baholay lozim. O'quvchilarning o'qishni tushunish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va umumiy savodxonlik darajasini baholash orqali o'qituvchilar kuch va takomillashtirish sohalarini aniqlashlari mumkin, bu esa ko'proq maqsadli va ta'sirli ko'rsatmalarga olib keladi shundagina ko'zlagan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Toirova M.E. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, I qism. / Toirova M.E. -Toshkent. "Novda Edutainment", 2023.
2. Umumiy o'rta ta'limning davlat standartlari va o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Axborotnomasi, 7-maxsus son. Toshkent. «Sharq», 1999.
3. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti // «Boshlang'ich ta'lim». Jurnal. Toshkent, 2005.
4. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi // «Boshlang'ich ta'lim». Jurnal. Toshkent, 2005.
5. Aminova F. H. O'quvchilarni muloqot matni yaratishga o'rgatishning didaktik asoslari: Ped. fan. nomz. dis. avtoref. – T.: O'zPFITL. 2007.
6. Asqarova M., Matchonov S., Qodirova F., G'ulomova X., Boymatova A., Bozorova M., Muhamedova D. O'zbek tili mashg'ulotlarida nutq o'stirish. – T.: TDPU, 2000..
7. www.natlib.uz internet kutubxona
8. www.ziyonet.uz materiallar